

“Suv muammolarini yechishda raqamli texnologiyalar” mavzusi dolzarbliги talabalar tomonidan namoyish etildi

22-mart Butujahon suv kuni munosabati bilan turkum tanlovlari tarkibida “Suv muammolarini echishda raqamli texnologiyalar” mavzusidagi munozaralar tanlovi ham mavjud bo’lib, ushbu tanlov talabalarimizda mavzuga nisbatan tanqidiy-taxliliy nuqtai nazar bilan yondashish, mavzu doirasida argument va faktlarning asosli keltirib o’tilishi, sohada mavjud muammolar echimlari yuzasidan yangi innovatsion echimlarni keltirib o’tishdagi aniqlik va bahs etikasi qoidalariga qat’iy rioya qilish borasidagi malakaviy tajribalarini shakllantiradi va rivojlantirishga xizmat qiladi.



Munozaralar tanlovi 11 mart kuni “Butunjahon suv kuni” turkum tanlovlarinining birinchi kunida bo’lib o’tdi. Tanlovdagi 20 ta jamoada umumiyligi 60 nafar ishtirokchi qatnashdilar. Tanlov ikki bosqichda ishtirokchilar o’zlari tayyorlab kelgan loyihalari himoyasi va “Suv muammolarini echishda raqamli texnologiyalar” mavzusidagi munozara shaklida o’tkazildi. Birinchi bosqichdan finalga yo’llanmani qo’lga kiritgan besh jamoa final bosqichida faxrli o’rinlar uchun baxs olib borishdi.



Natijalarga ko’ra “HYDROLEADERS” jamoasi 1-o’rinni, “A-B Smart” 2-o’rinni, “Gidravliklar” 3-o’rinni qo’lga kiritishdi. G’oliblarni ushbu yutuq bilan tabriklab, kelgusi ishlardan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Eslatib o’tamiz Butunjahon suv kuni turkum tadbirlari 11-13 mart kunlari davomida o’tkaziladi.

TIQXMMI matbuot xizmati